# Jizzax viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

( 2021- yil yanvar-mart oylarida )

Dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha 2021- yilning yanvar-mart oylarida viloyat korxonalari tomonidan 1480,4 mlrd. sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2020- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 116,1 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi ( 90,3 %) ni tashkil etdi.







*B*–*Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash,* ***C****-Ishlab chiqaradigan sanoat* ***D****-Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash,* ***E****-Suv bilan ta‘minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish.*

## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* *% da*







Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmining pasayishining asosiy omili bo‘lib, suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilishda 10,2 % ga pasayishi kuzatildi. Shuningdek, elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalashning 52,8 % ga va ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning 8,4 % ga tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida 139,3 % ga oshganligi kuzatildi.

***Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** *ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.*

## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati

mlrd. so‘m




FHI % da




Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2021- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 41,2 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,8 % ini tashkil etdi.

### Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, % da

2020- y % da




2021- y % da




### Tumanlar miqiyosida, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi, mln. so‘mda

| Tumanlar nomi | 2020- yil yanvar-mart | 2021- yil yanvar-mart | FHI, % |
|---|---|---|---|
| G‘allaorol tumani | 1 419,6 | 8 775,2 | 533,8 |
| Forish tumani | 12 145,8 | 24 375,4 | 173,3 |
| Sharof Rashidov tumani | 2 073,1 | 2 101,1 | 87,5 |
| Zomin tumani | 3 417,7 | 2 168,0 | 54,8 |
| Jizzax shahri | 1 115,2 | 942,9 | 73,0 |
| Zafarobod tumani | 4 660,2 | 2 144,7 | 39,7 |

## Ishlab chiqaradigan sanoat







2021- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1337,1 mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 90,3 % ini tashkil etdi.

### Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, *% da*







O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,0 % ni (2020-yilning yanvar-mart oylarida – 2,5 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 8,3 % ( 5,0 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 16,2 % (17,4 %) va quyi texnologiyalisi – 64,7 % ( 64,3 %)ni tashkil etdi.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta’mirlash va o‘rnatish, avtotransport vositalari, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi - 12,2 % ( 2020- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 100,3 %), metallurgiya sanoatining ulushi - 1,8 % ( 2020- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 57,7 %), to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 46,1 % ( 2020- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 86,9 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 17,2 % ( 2020- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajmi indeksi 123,1 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 3,1 %( 2020- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 128,3 %) ni tashkil etdi.

## Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘sish sur’ati

2021- yilning yanvar-mart oylarida davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 15,8 ming tonna yumshoq bug‘doy va spelta uni ( 2020- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 7,7 % ga), ishlab chiqarilib, yuqori o‘sish sur’atlari kuzatildi.

### O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

O‘simlik yog‘i (tozalangan)




Paxta tolasi




Yumshoq bug‘doy va spelta uni




Paxta linti




Paxta chigiti




Kalava ip




### Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalar tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-mart | 2021- yil yanvar-mart | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Yumshoq bug‘doy va spelta uni, t. | 14 716,0 | 15 846,0 | 1 130,0 |
| Paxta tolasi, t. | 12 075,0 | 19 013,2 | 6 938,2 |
| O‘simlik yog‘i (tozalangan), t. | 1 671,0 | 1 482,1 | -188,9 |
| Paxta linti, t. | 1 102,0 | 1 915,2 | 813,2 |
| Kalava ip, t. | 4 922,0 | 9 853,0 | 4 931 |

## Elektr, gaz, bug‘ bilan taminlash va havoni konditsiyalash

2021- yilning yanvar-mart oylarida







Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 85,8 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining ( 5,8 % ini) tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-mart oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 52,8 % ga oshganligi kuzatildi.

### Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, *% da*







### Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-mart | 2021- yil yanvar-mart | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Elektr energiyasini uzatish bo‘yicha xizmatlar, mln. so‘m | 60 300,2 | 59 280,5 | -1019,7 |
| Boshqa bug‘ va issiq | 6,5 | 12,0 | 5,5 |

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-mart | 2021- yil yanvar-mart | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| suv (issiqlik energiyasi), ming gkal | | | |
| Gazsimon yonilg‘ini quvurlar orqali taqsimlash bo‘yicha xizmatlar, mln. so‘m | 20 940,7 | 26 554,0 | 5 613,3 |

## Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish




Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 16,3 mlrd.so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,1 % ini) tashkil etdi.

## Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, *% da*




| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-mart | 2021- yil yanvar-mart | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Suvni yig‘ish, qayta ishlash va taqsimlash bo‘yicha xizmatlar, mln. so‘m, | 5 558,3 | 10 971,6 | 5 413,3 |

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-mart | 2021- yil yanvar-mart | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Chiqindilarni yig‘ish, ishlov berish, yo‘qotish, utilizatsiya qilish bo‘yicha xizmatlar, mln. so‘m** | 6 587,4 | 5 328,6 | -1 258,8 |

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan suvni yig‘ish, qayta ishlash va taqsimlash bo‘yicha xizmatlar 9,8 % ga oshganligi kuzatildi, chiqindilarni yig‘ish, ishlov berish, yo‘qotish, utilizatsiya qilish bo‘yicha xizmatlar 44,6 % ga, pasayishi kuzatildi.

## Iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 596,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2020- yilning yanvar-mart oylariga mos davriga nisbatan 25,5 % ga oshgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 40,3 % ni tashkil etdi.



Shahar va tumanlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to‘g‘ri kelib, 32,7 % ni, shuningdek, G‘allaorol tumani 10,6 % ni, Zarbdor tumani 9,5 % ni hamda Do‘stlik tumani 8,4 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, viloyatda iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida yuqori ko‘rsatkich Zafarobod tumani (270,1%), G‘allaorol tumani (184,4 %) va Zarbdor ( 200,7 %) tumanlarida qayd etildi.

## Shahar va tumanlar bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

2021- yilning yanvar-mart oylarida

| | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Jizzax viloyati | 596,5 | 100,0 | 125,5 |
| Zomin | 35,1 | 5,9 | 100,4 |
| Jizzax shahar | 195,1 | 32,7 | 103,0 |
| Zarbdor | 56,6 | 9,5 | 200,7 |
| Arnasoy | 23,7 | 4,0 | 124,3 |
| Zafarobod | 40,4 | 6,8 | 270,1 |
| Baxmal | 19,1 | 3,2 | 110,4 |
| Mirzacho‘l | 14,4 | 2,4 | 122,9 |
| G‘allaorol | 62,9 | 10,6 | 183,8 |
| Paxtakor | 33,0 | 5,5 | 217,7 |
| Sharof Rashidov | 34,6 | 5,8 | 104,4 |
| Forish | 12,8 | 2,2 | 100,0 |
| Do‘stlik | 50,1 | 8,4 | 101,8 |
| Yangiobod | 18,7 | 3,0 | 124,4 |

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to‘g‘ri kelib, 26,1 % ni, shuningdek, Zarbdor tumani 23,2 % ni, Do‘stlik tumani 15,1 % ni, hamda Paxtakor tumani 5,8 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida eng yuqori ko‘rsatkich Jizzax shahar (159,8 %) hamda Zarbdor tumanida ( 205,7 %) qayd etildi.

## Shahar va tumanlar bo‘yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

(2021- yilning yanvar-mart oylarida)

| | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Jizzax viloyati | 184,7 | 100,0 | 128,6 |
| Zomin | 9,5 | 3,3 | 118,5 |
| Jizzax shahar | 47,4 | 26,1 | 159,8 |
| Zarbdor | 42,1 | 23,2 | 205,7 |
| Arnasoy | 4,7 | 2,6 | 82,1 |
| Zafarobod | 6,5 | 3,6 | 108,9 |
| Baxmal | 9,5 | 5,2 | 115,2 |
| Mirzacho‘l | 3,4 | 1,9 | 62,4 |
| G‘allaorol | 7,0 | 3,9 | 91,2 |
| Paxtakor | 10,4 | 5,8 | 152,1 |
| Sharof Rashidov | 7,7 | 4,3 | 97,9 |
| Forish | 4,8 | 2,6 | 88,5 |
| Do‘stlik | 27,4 | 15,1 | 97,8 |
| Yangiobod | 4,3 | 2,4 | 97,5 |

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to‘g‘ri kelib, 35,9 % ni, shuningdek, G‘allaorol tumani 13,6 % ni, Zafarobod tumani 8,2 % ni, Zomin tumani 6,2 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida eng yuqori ko‘rsatkich Zafarobod tumani tumaniga to‘g‘ri kelib, 377,1 % ni, G‘allaorol tumani 211,3 % hamda Paxtakor tumanida 272,4 % qayd etildi.

## Shahar va tumanlar bo‘yicha nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

2021- yilning yanvar-mart oylarida

| | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Jizzax viloyati | 411,8 | 100,0 | 125,0 |
| Jizzax shahar | 147,7 | 35,9 | 92,5 |
| Arnasoy | 19,0 | 4,6 | 142,6 |
| Baxmal | 9,6 | 2,3 | 106,0 |
| G‘allaorol | 55,9 | 13,6 | 210,5 |
| Sharof Rashidov | 26,9 | 6,5 | 106,5 |
| Do‘stlik | 22,7 | 5,5 | 107,1 |
| Zomin | 25,7 | 6,2 | 102,6 |
| Zarbdor | 14,5 | 3,5 | 187,5 |
| Zafarobod | 33,9 | 8,2 | 377,1 |
| Mirzacho‘l | 10,9 | 2,7 | 177,0 |
| Paxtakor | 22,5 | 5,5 | 272,4 |
| Forish | 8,1 | 2,0 | 108,1 |
| Yangiobod | 14,2 | 3,5 | 135,8 |

## Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

2021- yilning yanvar-mart oylarida

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 487,4 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 32,9 % ni tashkil etdi.

## Jizzax viloyatining shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari

2021- yilning yanvar-mart oylarida

| | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Jizzax viloyati. | 1480,4 | 100,0 | 116,1 |
| Jizzax shahar | 530,6 | 35,8 | 102,2 |
| Arnasoy | 58,9 | 4,0 | 101,7 |
| Baxmal | 19,6 | 1,3 | 104,4 |
| G‘allaorol | 73,1 | 4,9 | 124,5 |
| Sharof Rashidov | 87,2 | 5,9 | 102,2 |
| Do‘stlik | 209,8 | 14,2 | 100,1 |
| Zomin | 63,0 | 4,3 | 103,5 |
| Zarbdor | 83,7 | 5,7 | 83,4 |
| Zafarobod | 127,8 | 8,6 | 135,0 |
| Mirzacho‘l | 38,4 | 2,6 | 102,3 |
| Paxtakor | 115,5 | 7,8 | 144,2 |
| Forish | 54,2 | 3,7 | 100,9 |
| Yangiobod | 18,6 | 1,2 | 104,8 |

## Jizzax viloyati shahar va tumanlar kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o‘sish sur’ati % da

Viloyat sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksining oshganini, Zafarobod (2020- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 135,0 %), Paxtakor (144,2 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada oshganligi bilan izohlashimiz mumkin.



## Jizzax viloyati jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng koʻp ulush Jizzax shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 35,8 % ni) hamda Doʻstlik (14,2 %), Paxtakor ( 7,8 %) va Zafarobod ( 8,6 %) tumanlari hissasiga toʻgʻri kelmoqda.

Eng past koʻrsatkich esa Baxmal (1,3 %) hamda Yangiobod (1,2 %) tumanlariga toʻgʻri kelmoqda.






Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Jizzax shahri ( 2931,3 ming soʻm),Doʻstlik ( 3148,1 ming soʻm), Zafarobod ( 2526,1 ming soʻm) tumanlarida oʻrtacha viloyat darajasi koʻrsatkichidan ancha yuqoriligini koʻrsatmoqda.

Viloyat boʻyicha aholi jon boshiga isteʼmol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 421,9 ming soʻm boʻlgan boʻlsa, Jizzax shahrida 1076,6 ming soʻmni, Yangiobod tumanida 648,7 ming soʻmni, Zafarobod tumanida 799,1 ming soʻmni tashkil etdi.

## Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

2021- yilning yanvar-mart oylarida, ming. so‘m

| Hudud | Sanoat mahsulotlari | Iste’mol mahsulotlari |
|---|---|---|
| Jizzax viloyati | 1047,3 | 421,9 |
| Zomin | 376,4 | 209,5 |
| Jizzax shahar | 2931,3 | 1076,6 |
| Zarbdor | 947,6 | 640,9 |
| Arnasoy | 1265,5 | 508,8 |
| Zafarobod | 2526,1 | 799,0 |
| Baxmal | 122,8 | 119,7 |
| Mirzacho‘l | 727,1 | 272,9 |
| G‘allaorol | 416,8 | 360,0 |
| Paxtakor | 1522,1 | 434,7 |
| Sharof Rashidov | 384,1 | 152,6 |
| Forish | 576,9 | 136,6 |
| Do‘stlik | 3148,1 | 752,2 |
| Yangiobod | 650,3 | 648,7 |

## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

2021- yilning yanvar-mart oylarida, *% da*

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik sub’yektlari tomonidan 730,8 mlrd. so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 49,4 % ni tashkil etdi.






Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Baxmal tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Sharof Rashidov (100,0 %), Zafarobod (100,0%) tumanlarida kuzatildi.

Viloyatimiz hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko'rsatdiki, Paxtakor ( 8,3 %) tumanlarida hamda Jizzax shahrida ( 27,9 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

## Jizzax viloyatida faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

(2021- yil 1-aprel holatiga)

Bugungi kunda viloyatda 3521 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1 102 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 31,3 % ) Jizzax shahriga, Sharof Rashidov tumaniga 690 tasi ( 19,6 %), G'allaorol tumaniga 349 tasi ( 9,9 %), Zomin tumaniga 263 tasi ( 7,5 %), Forish tumaniga 160 tasi (4,5 %), Zarbdor tumaniga 161 tasi ( 4,6 %) to'g'ri kelmoqda.




2021- yil yanvar-март oylarida viloyatda 264 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 67 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 25,4 %) Jizzax shahrida, 47 tasi (17,8 %) Sharof Rashidov tumanida, 34 tasi (12,9 %) G'allaorol tumanida tashkil etildi.

## 2021- yil yanvar-mart oylarida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarish

**RAQAMLAR:**

- Mahalliylashtirish dasturidagi loyihalar soni 44 ta
- Mahalliylashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 394,6 mlrd. so'm.
- Mahalliylashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning eksport hajmi 5,5 mln. AQSH.dollar.

2021- yil yanvar-mart oylarida tayyor mahsulotlar, butlovchi materiallarni ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturi doirasida 44 ta loyiha bo'yicha 394,6 mlrd.so'mlik mahsulot ishlab chiqarilgan bo'lib, 5,5 mln. AQSH. dollarlik mahalliylashtirilgan mahsulotlar eksport qilindi va 354 ta yangi ish o'rni yaratildi.

### Ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi (mlrd.so'mda.)

2021- yilning yanvar-mart oylarida mahalliylashtirish dasturi bo'yicha ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 394,6 mlrd. so'mni tashkil qildi. O'z navbatida mazkur 2020-2021- yillarda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni hajmini ko'rishimiz mumkin.



## 2021-yil yanvar- mart oylarida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallarni ishlab chiqarishnmahalliylashtirish dasturining asosiy koʻrsatkichlari

2021- yilning yanvar-mart oylarida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturi boʻyicha 44 ta loyiha ( 394,6 mlrd. soʻmlik mahsulot) amalga oshirilgan boʻlib, Jizzax shahrida 24 ta (195,2 mlrd. soʻm) Gʻallaorol tumanida 4 ta ( 91,1 mlrd.soʻm), Zafarobod tumanida 1 ta ( 66,4 mlrd,soʻm), korxonalarga toʻgʻri keladi.



Mahalliylashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning eksporti ham 2021- yilning tegishli davri bilan solishtirganda 5546,1 ming. AQSH. dollarga o‘shishi kuzatildi. O‘z navbatida, eksportning eng ko‘proq qismi Jizzax shahriga ( 5215,7 ming. AQSH. dollar), ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Shu bilan birga o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan 354 ta yangi ish o‘rini yaratildi.

**2021- yil yanvar- mart oylarida mahalliylashtirish dasturi doirasida hududlar kesimida amalga oshirilgan korxonalar soni, birlikda**




**Sanoat statistikasi bo‘limi**

Tel.: (72-221-51-13)